



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 24-mart

149-6-0-Q/25

Namangan viloyati hokimligi

Namangan viloyatida jamoat transportlarida yo‘lkira tarif tizimini takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonuni 16-moddasi, “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi Qonuni 12, 16-moddalari va “Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-yanvardagi “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2724-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 273-sonli, 2021-yil 8-oktabrdagi “Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 630-sonli, 2021-yil 22-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ayrim qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 87-sonli qarorlari ijrosi yuzasidan hududlarda (shahar va tumanlarda) yo‘lovchilar transportida yo‘lovchi va bagaj tashishning yo‘l qo‘yiladigan tariflar darajasi iqtisodiy asoslangan tashish xarajatlaridan va yo‘lovchilar tashish xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat transport boshqarmasining 2025-yil 14-fevraldagi 01/03-304-son taklifi hamda Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 14-fevraldagi 02/14-38/179-son xulosasi ma’qullansin.

2. 2025-yil 1-apreldan Namangan shahrining jamoat transporti yo‘nalishlarida yo‘lkira haqini to‘lashda transport kartalaridan foydalanishni rag‘batlantirish

maqsadida Namangan shahri hududida shahar yo'lovchi transporti – avtobus qatnovlarni amalga oshirish uchun cheklangan tariflar:

a) avtobuslarda bir nafar yo'lovchi uchun naqd pulda yo'l haqi **3000 (uch ming) so'm**;

b) jamoat transportida naqd pulsiz to'lov tizimini jozibadorligini oshirish, mazkur tizimdan foydalanishda yo'lovchilarni keng jalb qilish, sohadagi yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish maqsadida avtobuslarda elektron shaklda to'langan to'lovlar (transport kartasi, ATTO, bank kartalar,) orqali bir nafar yo'lovchi uchun bir martalik rag'batlantiruvchi yo'l haqi tarifi **2300 (ikki ming uch yuz) so'm**;

d) bir yo'lovchining bagajini tashish bo'yicha xizmat uchun – **3 000 (uch ming) so'm** etib belgilansin.

e) yo'nalishli taksi (mikroavtobus) va avtobuslarda hajmi 60 sm x 40 sm x 20 sm dan 100 sm x 50 sm x 30 sm.gacha bo'lgan va uzunligi 150 santimetrdan 200 santimetr gacha bo'lgan buyumlarni hamda o'lchamidan qat'iy nazar, og'irligi 20 kilogrammdan ortiq bo'lgan bagajni olib yurish **3000 so'm** etib belgilansin.

3. Belgilansinki:

yo'lovchi hajmi 60 sm x 40 sm x 20 sm va og'irligi 20 kilogrammdan ortiq bo'lmagan qo'l yuki hamda musiqa asbobini, 150 santimetr gacha uzunlikdagi buyumlarni, shuningdek qafasga solingan mayda hayvonlar va parrandalarni, aravachani (bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqalarning aravachalarini), mayda bog'dorchilik inventari, bolalar chanalarini o'zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega;

shahar yo'nalishlaridagi avtobuslarda yo'lovchilarning 7-yoshgacha bo'lgan bolalari uchun haq undirilmaydi.

4. Yo'lovchilarning shahar yo'lovchilar transporti – avtobuslardan foydalanishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy foydalaniladigan transportda yo'lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida” 2012-yil 17-sentabrdagi 273-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida” 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qaroriga asosan qatnovlar soniga bog'liq holda belgilangan, tarif rejalari joriy cheklangan tarif narxiga asosan 2 000 so'mdan hisoblangan holda narxlar 1-ilovaga muvofiq;

transport kartalaridan foydalanilganda almashish tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo yo'nalishlarida bir yo'lovchi kilometr uchun tarif:

avtobuslarda **260 (ikki yuz oltmish) so'm**;

yo'nalishli taksilarda **410 (to'rt yuz o'n) so'm** etib belgilansin.

6. Namangan viloyat Transport boshqarmasi (B.Bekxodjayev) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, ikki kun muddatda qonunchilik hujjatlariga muvofiq yo'lovchilarni tashuvchi tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan tanlov (tender) shartnomalariga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishini ta'minlasin.

7. Namangan viloyat hokimining 2023-yil 10-oktabrdagi 384-6-0-Q/23-son qarori hamda "Viloyatdagi shahar, shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo yo'lovchi tashish yo'nalishlarini joylashtirish bo'yicha tenderlarni tashkil etish va o'tkazish komissiyasi"ning 2019 yil 28 avgustdagi 6-sonli yig'ilish bayoni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror "Namangan haqiqati" va "Namanganskaya pravda" gazetalarida e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

9. Qarordan norozi bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda tegishli vakolatli organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari G'.Djamalov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



Sh. Abdurazakov

Namangan viloyati hokimining
2025-yil 24-martdagi
149-6-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Yo'lovchilarning shahar yo'lovchilar transporti - avtobuslardan
foydalanishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qaroriga asosan qatnovlar soniga
bog'liq holda belgilangan
TARIF REJALARINING NARXLARI**

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Tarif turlari (kun)	Tarif turidagi qatnovlar soni	Yangi taklif etilayotgan tarif rejalarining narxi QQS bilan , so'm
1.	“A V” avtobus, elektrobus - yo'lovchi uchun*	1	-	7 000,0
		5	22	33 880,0
		7	-	46 900,0
		10	44	67 760,0
		15	66	101 640,0
		20	88	135 520,0
		30	130	200 200,0
		90	-	450 000,0
		180	-	810 000,0
		365	-	1 642 500,0
2.	“N” avtobus, elektrobus - pensionerlar va nogironlar uchun**	1	-	4 000,0
		5	22	16 940,0
		7	-	23 100,0
		10	44	33 880,0
		15	66	50 820,0
		20	88	67 760,0
		30	130	100 100,0
		90	-	270 000,0
		180	-	450 000,0
		365	-	912 500,0

3.	“T” avtobus, elektrobus - talabalar uchun**	1	-	5 000,0
		5	22	16 940,0
		7	-	23 100,0
		10	44	33 880,0
		15	66	50 820,0
		20	88	67 760,0
		30	130	100 100,0
		90	-	270 000,0
		180	-	450 000,0
		365	-	912 500,0
4.	“O” avtobus, elektrobus - o‘quvchilar uchun**	1	-	4 000,0
		5	22	16 940,0
		7	-	23 100,0
		10	44	33 880,0
		15	66	50 820,0
		20	88	67 760,0
		30	130	100 100,0
		90	-	270 000,0
		180	-	450 000,0
		365	-	912 500,0
5.	“B” bepul - O‘zbekiston Respublikasining “Shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq transportdan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar uchun	30	60	

Izoh:

**) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: $X \cdot 2000 - 23\%$;*

***) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: $X \cdot 2000 - 23\% - 50\%$, bunda:*

X – transportda qatnovlar soni;

2000 so‘m – yo‘l chiptalarini hisoblash uchun qabul qilingan cheklangan tarif;

23 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9- oktabrdagi 643-son qarori bilan to‘liq qiymatidan belgilangan chegirma miqdori;

50 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9- oktabrdagi 643-son qarori bilan, chegirishni hisobga olgan holda, tarif rejasi qiymatidan qo‘llanadigan imtiyoz.

Namangan viloyati hokimining
2025-yil 24-martdagi
149-6-0-Q/25-son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transportini isloh qilish to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qaroriga asosan, yo‘lovchilarning shahar yo‘lovchilar transporti - avtobuslardan foydalanishlarida to‘lovlar transport kartalari orqali amalga oshirilganda almashish

TARIF REJALARINING NARXLARI*

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Almashish turlari	Tarif rejalarining narxi, so‘m
1.	1 soatlik A+A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov QQS bilan	2 300
		ikkinchi avtobusda to‘lov QQS bilan	700
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0

Izoh:

A – avtobus;

Avtobusning faqat old eshigidan chiqishga ruxsat etiladi.

Yo‘lovchi birinchi transportga chiqishida to‘lov qilingan vaqtdan boshlab hisob davri boshlanadi.

Namangan viloyati hokimining
2025-yil 24-martdagi
149-6-0-Q/25-son qaroriga
3-ilova

**NORMATIV-NUQUQIY NUJJAT LOYINASINING
LINGVISTIK EKSPERTIZA
XULOSASI**

02-son

1. Normativ-huquqiy hujjat loyihasining turi: Namangan viloyati hokimining qarori.

2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasining nomi: Namangan viloyatida jamoat transportlarida yo'l kira tarif tizimini takomillashtirish to'g'risida.

3. Lingvistik ekspertizani o'tkazuvchi: Namangan viloyati hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi.

4. Lingvistik ekspertiza o'tkazilgan sana: 27.02.2025-yil

5. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi matnida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, tegishli tuzatishlar kiritish, matnni qisqartirish, qayta ishlash bo'yicha aniq tavsiyalar ko'rsatiladi: Normativ-huquqiy hujjat loyihasi tekshirildi, qarorning 2-bandi e-qismida "belgilancin" so'zida "c" xarfi xato yozilgan, 6-bandi "Bekxodjayyev" so'zida "y" so'zi ikki marotaba yozilgan, aniqlangan xato va kamchiliklar, tuzatishlar bo'yicha tegishli xodimga qaytarildi hamda tavsiyalar berildi.

Maslahatchi:

imzolangan

I.Qo'chqarova

“27” fevral 2025-yil

Namangan viloyati hokimining
2025-yil 24-martdagi
149-6-0-Q/25-son qaroriga
4-ilova

**Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun
MA'LUMOTNOMA**

2025-yil 11-mart

Namangan shahri

Namangan viloyati hokimligining yuridik xizmati yuriskonsulti J.Musayev tomonidan viloyat hokimining "Namangan viloyatida jamoat transportlarida yo'lkira tarif tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori loyihasini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, unga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning talablariga muvofiqligi, shu jumladan ushbu normativ-huquqiy hujjat loyihasida havola qiluvchi normalar qo'llanilishining asosiligi hamda maqsadga muvofiqligi jihatidan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Viloyat hokimining ushbu qarori loyihasi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy xujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 21-24-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2021-yil 15-noyabrda 19-mh-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3333) bilan tasdiqlangan "Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish, huquqiy ekspertizadan o'tkazish" Qoidalari talablariga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.


Loyiha O'zbekiston Respublikasining "Avtomobil transporti to'g'risida"gi Qonuni 16-moddasi, "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida"gi Qonuni 12, 16-moddalari va "Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-yanvardagi "Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2724-son, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 17-sentabrdagi "Umumiy foydalaniladigan transportda yo'lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 273-son, 2021-yil 8-oktabrdagi "Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 630-son, 2021-yil 22-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi hukumatining o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 87-son qarorlari asosida ishlab chiqilgan.

Loyihada korrupsiya, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimida huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, shuningdek tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha ma'muriy hamda o'zga cheklovlarni joriy etuvchi, tadbirkorlik subyektlarining asossiz xarajatlari yuzaga kelishiga olib keluvchi qoidalar va normalar aniqlanmadi.

Namangan viloyati hokimining “Namangan viloyatida jamoat transportlarida yo‘lkira tarif tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, mazkur qaror loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qonun hujjatlarining tadbirkorlik faoliyatiga ta’sirini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2014-yil 2-dekabrda 328-son qarori talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari muhokamasi portalida muhokama qilish uchun 2025-yil 21-fevral kuni joylashtirilgan va 2025-yil 8-mart kuni muhokamasi yakunlangan (ID-106274).

Qaror loyihasining jamoatchilik muhokamasi jarayonida takliflar kelib tushmagan. Loyihaning idoraviy kelishuvi jarayonida e’tirozlar kelib tushmagan.



Loyihada korrupsiya, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tizimida huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, shuningdek tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha ma’muriy hamda o‘zga cheklavlarni joriy etuvchi, tadbirkorlik subyektlarining asossiz xarajatlari yuzaga kelishiga olib keluvchi qoidalar va normalar aniqlanmadi.

Namangan viloyati hokimining “Namangan viloyatida jamoat transportlarida yo‘lkira tarif tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu qaror loyihasi qonunchilik texnikasi talablariga javob beradi.

